

Mansur Yunus

**ISTIQLOLNING  
MANGU MAYOG'I**

She'rlar

Toshkent  
«ADOLAT»  
2015

UO'K: 821.512.133-1

KBK 84(50)7

Yu-57

Yunus, Mansur. Istiqlolning mangu mayog'i: she'rlar; – Toshkent: Adolat, 2015. – 40 b.

ISBN 978-9943-4542-0-0

UO'K: 821.512.133-1

KBK 84(50)7

Iste'dodli shoir, jurnalist Mansur Yunusning she'rlari turli kayfiyatda yozilgan bo'lsa-da, ularning barchasida oddiylik va samimiylikni ko'rasiz. U ko'nglidagi borini sodda va xalqona tilda baralla kuylaydi. U qofiya yoki chiroyli o'xshatishlar qidirib yurmaydi, har bir mavzuda ko'ngilga murojaat qiladi. Aziz kitobxon, bu ijodkorning ko'ngil ash'orlari qalbingiz bilan do'stlashib ketishiga ishonamiz.

ISBN 978-9943-4542-0-0

© Mansur Yunus, 2015.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
huzuridagi «Adolat» nashriyoti, 2015.

MANGU  
QO'SHIQ

## ISTIQLOL FARZANDLARI

Bizlar – ona Vatanning  
Sevikli dilbandlari,  
Go‘zal O‘zbekistonning  
Istiqlol farzandlari.

Maqsadimiz ulug‘vor,  
Kelajak qanotlari.  
Yutuqlarga sazovor,  
Barkamol avlodlari.

Yo‘limizda shamchiroq  
Ustozlar saboqlari,  
Qalbimizda yorqinroq  
Yaxshilik savoblari.

Bizlar – mangu chamanning  
Gullari, yaproqlari.  
Ota-yu onamizning  
Qalbda ko‘zmunchoqlari.

## BAG'RINGDA OSMONIMIZ

Yurtim buyuk bayrog'i,  
Hilpiraysan sollanib.  
Baland bo'l, o'zbek ramzi  
Kamalakdek tovlanib.

Sensan hur bo'stonimiz,  
Bag'ringda osmonimiz.  
Sen – ezgulik elchisi,  
Nurli gulistonimiz.

Sarbon kabi bizlarni  
Shonli yo'lga boshlaysan,  
Ko'zga surtgaymiz abad,  
Qalbimizda yashaysan.

Sen o'zbekim nomini  
Jahon ichra taratding.  
Kezib barcha yurtlarni,  
Do'stlik yo'lin yaratding.

## MANGU QO'SHIQ

Istiqlolning ishonchi,  
Mangu qo'shiq – madhiyam.  
Sen-la dillar quvonchli,  
Mangu yasha, madhiyam.

Sen yangragan pallada  
Qo'lim doim ko'ksimda,  
Kuch bag'ishlab kuchimga  
Sen yashaysan qalbimda.

Har tong madhiya yangrar,  
Dillarga quvonch solib.  
Har bir so'zi jarangdor,  
Yashar yurakda qolib.

Seni kuylab baralla,  
Doim mag'rur yuraman.  
Sodiq farzanding bo'lib,  
Safda mag'rur turaman.

## O'ZBEGIM RAMZI

Gerbimsan, iftixorim,  
O'zing o'zbekim ramzi.  
Istiqlol nashidasi,  
O'zing millatim faxri.

Bag'ring bepoyon dala,  
Rizqim paxta-yu g'alla.  
Ezgulikka chorlaydi  
Masrur humo qush yana.

Amu va Sir qanoti,  
Bog'lari go'yo jannat.  
Tiniq osmonu quyosh,  
Har bittasi ming hikmat.

Sen muqaddas Vatanning  
Qalbisan, yuragisan.  
Sadoqatli insonlar  
Orzusi, tilagisan.

## ONA TILIM

Ona tilim, jonu dilim, vijdonim,  
Sensan suyuk, sensan buyuk zabonim.  
Beshikdanoq menga sirdosh do'stdirsan,  
Sen baxtimsan, sen-la topdim jahonim.

Senda ulug' bobolarning so'zi bor,  
Sensan o'zbek momolarning alyori.  
Ona tilim, seni tanir bor jahon,  
Sen-la buyuk allomalar asari.

Ona tilim, mangu yasha to abad,  
Navoiyning dostonlari naqshisan.  
O'zbek elim yuzisan, yuragisan,  
Sohibqiron o'gitlari ramzisan.

Yo'llaringa nur taratgan ziyosan,  
Yashayapsan onam aytgan allada.  
Jon baxsh etib, jilo berib yashaysan  
Ertak, doston, kuy, qo'shig'u yallaga.

## VATAN O'G'LONLARI

Vatan chegarasida  
Hushyor turar o'g'lonlar,  
Ona yer har qarichin  
Asragay bu posbonlar.

Ona yurt o'g'lonlari  
Jasur, ziyrak, mard, oqil.  
Yurtni asrar polvonlar  
O'ktam, bardamu sofdil.

Tuprog'in ko'zga surtib,  
To'tiyo aylagaydir.  
Shu Vatan sarhadlarin  
Avaylab-asragaydir.

Shu yurt bayrog'in tutib,  
Doim olg'a yurishar.  
Vatanga sodiq bo'lib,  
Chegarada turishar.

## O'ZBEK AYOLI

Dunyoning go'zalligi,  
Navosi erur ayol.  
Ikki olam jannatin  
Sabosi erur ayol.

Hayo, ibo, nazokat,  
Bordir o'zbek qizida.  
Shirin kalom, saxovat  
Bordir aytgan so'zida.

O'zbekim ayollarin  
Allasi olam tutsin,  
Barchasi bo'lishsin sog',  
Orzu-maqсадga yetsin.

VAQTNI  
QADRLA

## NURLI MASKANIM

Salom, nurli maskanim,  
Salom, qadrdon do'stlar!  
Salom, sirdosh kitoblar,  
Bizni murodga eltar.

Salom, jonajon maskan,  
Bizga qadrdon maskan.  
Onamizdek muqaddas,  
Aziz, mehribon maskan.

Seni intizor kutdik,  
Biz, birinchi qo'ng'iroq.  
Maktab bag'riga keldik  
Olaylik deya saboq.

Ziyo maskan, bog'ingda  
Eng sara gullar terdim,  
Bag'ringda ulg'ayib men  
Sen-la kamolga yetdim.

## MEHRIDARYO USTOZLAR

Mehringiz tafti cheksiz,  
Mehridaryo ustozlar.  
Har so'zingiz tabarruk,  
Qalbgga ziyo, ustozlar.

Sizning saboqlaringiz  
Yuraklarga jo bo'lgay.  
To'g'ri yo'l, katta hayot,  
Betizgin daryo bo'lgay.

Bizlarni farzandim, deb  
Hayot bergan ustozlar.  
Dunyo ilmlaridan  
Saboq bergan ustozlar.

Siz borsiz, qalbimizda  
Tafakkur, ziyo bordir.  
Siz borsiz, yo'limizda  
Baxt, omad, zafar yordir.

## SALOMLASHISH ODOBI

Quvnoq, zukko bolajon,  
Doim yodingda tursin.  
Keksa, yoshu hammaga  
Avval saloming bo'lsin.

Salom berib uyg'otar  
Bobo quyosh zaminni.  
Yog'du sochib yoritar  
Salomlashib oy tunni.

Hatto hol-ahvol so'rar  
Mehnatkash chumoli ham.  
Salom so'zi farz bo'lar,  
U barchamizga hamdam.

Odobing-la o'rnak bo'l,  
Tilda saloming bo'lsin.  
Istiqlolga bo'l qanot,  
Ko'ngling quvonchga to'lsin.

## VAQTNI QADRLA

Bobom bizni erkalab,  
Asal-qandim deydilar.  
Quloq tuting gapimga,  
Vaqt – bu oltin deydilar.

Bobojon, vaqt nimadir?  
U – to‘xtamas uchqur ot.  
Undan foydalan, bolam,  
Maqsading qilib qanot.

O‘qi, izla, olim bo‘l,  
Vaqting behuda bo‘lmas.  
Vaqt qadriga yetmasga,  
Bilingki, omad kulmas.

Bolam, vaqt daryo misol,  
Oqib ketaveradi.  
Hayot qadrini bilsang,  
Omad kulaveradi.

## NON AZIZ

U tanamizga darmon,  
Uni yerga qo'ymagin,  
Mazalidir shirmoy non,  
E'zozla har ushog'in.

Onam yopgan shirin non  
Dasturxonimiz ko'rki,  
Kuzatsang, har kunimiz  
Nonsiz o'tmas hattoki.

Shu sababli, do'stlarim,  
Non yeb kuchga to'laman.  
Uni sevib, ardoqlab,  
Ko'zga surtib qo'yaman.

Ushog'in qilma uvol,  
Non shirindir, non aziz.  
U tiriklik manbai,  
Uning bahosi tengsiz.

## SO'Z QADRI

Har bir millat e'zozlab,  
O'z ona tilin sevar.  
Qadri hech tushmasin deb,  
Ardoqlab, so'zlab yurar.

Do'stlarim, biz o'zbekning,  
Mard o'g'il, gul qizimiz.  
Uyda, ishda, ko'chada  
Sof o'zbekcha so'zlaymiz.

So'zlamaymiz hech qachon  
Qorishtirib tillarni,  
Kamsitmaymiz hech qachon  
Tilni buzib, ellarni.

Do'stim, so'zlasang faqat  
Sof o'zbekcha so'zlagin.  
Ona tilning qadrini  
Har so'zingda o'ylagin.

## YOT G'OYA

Yovuz niyat – yot g'oya,  
Tinchlikka solar soya.  
Elning yoshu qarisin  
Mardlar qilar himoya.

Dinimiz niqob qilib,  
Nopok reja tuzishar.  
Ko'pni yo'ldan ozdirib,  
Oqibat xor bo'lishar.

Do'stlar, biz kurashamiz,  
Yot g'oyalarga qarshi.  
Vatanparvar bo'ladi  
Yurtning asl farzandi.

Biz milliy g'oyamizni  
Qalbimizda asraymiz,  
Targ'ib qilib ommaga,  
To'g'ri yo'ldan qaytmaymiz!

## BURCHING OQLA

Yuksak maqsadla yurgin,  
Sog' o'sib, kuchga to'lgin,  
Har ishda hushyor bo'lgin,  
Farzandlik burching oqla.

Hurmat qilgin otangni,  
Rozi qilgin onangni,  
E'zozla do'st, yoringni,  
Insonlik burching oqla.

Jasur, bir so'z inson bo'l,  
Nomardlarga berma qo'l,  
Tanla oliy maqsad yo'l,  
Insonlik burching oqla.

Doim omading kulsin,  
Qalbda iymoning bo'lsin,  
Hayoting nurga to'lsin,  
Farzandlik burching oqla.

## OG'U BILAN O'YNASHMA

Unda yo'q ma'no, mantiq,  
U bilan hech sirlashma,  
Hayoting qo'yib xavfga  
Og'u bilan o'ynashma.

Uzoq yashayin desang,  
Og'u bilan do'stlashma.  
Chin inson bo'lay desang,  
Og'u bilan o'ynashma.

Avval u qo'lin tutar,  
Hayoting barbod etar,  
Bir umr kulib o'tar,  
Og'u bilan o'ynashma.

Nomin tilga olmagin,  
Yaxshi yo'ldan qolmagin,  
Mehnat qilgin, tolmagin,  
Og'u bilan o'ynashma.

## INTERNET

Dunyo o'rgimchak to'ri –  
Axborotlar makoni.  
Do'stim, anglagin shuni,  
Unda ham bor yomoni.

Dunyo bilan sirlashib,  
Do'stlar orttirsang bo'lar.  
Unda ko'p yomon illat,  
Seni sehrlab qo'yar.

Qiziqtirib o'ziga,  
U qalbingni muzlatar.  
Ishontirib so'ziga,  
Maqsadingdan chalg'itar.

Do'stim, so'zlarim tingla,  
Internetni o'rgan, ho'p,  
Behuda vaqt o'tkazib,  
So'ngra afsus qilma ko'p.

## KESMA SOCHINGNI

Qiy nab omon boshingni,  
O'zgartirib yoshingni,  
Ochib qalam qoshingni,  
Qizim, kesma sochingni.

Soch kesmagan Barchinoy,  
Sochin qirqta o'rgan-ku.  
To'maris ham, albatta,  
Sochin asrab yurgan-ku!

Qizim, sochingni kesma,  
Qirqta qilib o'rib yur.  
Qirq kokilli qizlardek  
O'zbekliging bilib tur.

Sen o'zbekning iboli  
G'ururi timsolisan.  
O'zbek elin hayosi,  
Nomusisan, orisan.

## TELEFON

Do'stim, sog' bo'lay desang,  
U bilan hech do'stlashma,  
Zarari ko'pdir bilsang,  
Telefon-la sirlashma.

Ko'p o'ynab, ko'p ishlatsang,  
Xotirang susaytirar.  
Yoningda olib yotsang,  
Kasallik ko'paytirar.

U tezkoru qulaydir,  
Ermak qilib o'ynama.  
Seni no'noq qilganda,  
O'zingni ko'p qiynama.

Keraksiz o'yinlarni  
Unga sira joylama,  
Do'st bilib telefonni  
Umring unga bog'lama.

Zarur holda ishlatsang,  
Uzog'ing qilar yaqin.  
U bilan ko'p o'ynasang,  
Afsus qilarsan keyin.

## TIL O'RGANU DUNYO KEZ

Til bilgan dunyo kezar,  
Yalqovliklar unga yot.  
Yuksalar, reja tuzar,  
Bilimlar unga qanot.

Kezar ko'plab yurtlarni,  
Ham ko'rar, ham o'rganar.  
Orttirib ko'p do'stlarni  
Boy tarixni o'rgatar.

Tinim bilmay izlanar,  
Dunyoqarashi kengdir.  
Unda fikru g'oyalar  
Cheksiz, oltinga tengdir.

So'zlasholsang ko'p tilda  
Yutqazmaysan, sababi  
Til bilgan dil biladi,  
Bu – davrning talabi.

## BARKAMOL AVLOD

Bizlar o'zbekning asli  
Gulu lolalarimiz.  
Ulug' ajdodlar nasli,  
Izdosh bolalarimiz.

Jonajon, hur o'lkaning  
Kelajak qanotimiz,  
Orzulari bir osmon  
Barkamol avlodimiz.

Qalbimizning to'rida  
Shu Vatanga mehr bor,  
Biz – yoshlarning qo'lida  
Kasb-hunar bor, ilm bor.

Biz oshamiz dovonlar,  
Yurtga iftixor bo'lib.  
Yashnatamiz shu elni,  
Sog' o'sib, kuchga to'lib.

## ISTIQLOLNING MANGU MAYOG'I

Vatan, sening nomingni  
Doim kuyga solaman.  
Farzandlik burchin oqlab,  
Senga sodiq qolaman.

Istiqlol – ulug' ne'mat,  
Bobolarim orzusi.  
Momolar duosida  
Mangu ma'vo qolg'usi.

Istiqlolim abadiy,  
Ona yurt, bog'ing chaman.  
Sen suyukli, yagona,  
Ulug', muqaddas Vatan.

Sen buyuk, muqaddassan,  
Sen – tingchlikning bayoti.  
Yo'lim yoritar mangu  
Istiqlolning mayog'i.

UYG‘OQ  
QALB

## O'ZLIK

Bolam, asling insondir,  
Kimligingni unutma.  
Seni asrar iymondir,  
O'zligingni unutma.

Insonga xos ish qilgin,  
O'zgadan umid kutma.  
Haq yo'ldan olg'a yurgin,  
Nomard izini tutma.

Bobolaring kim bo'lgan,  
Ularni hech unutma.  
Nopok, yomon insonlar  
Yonidan aslo o'tma.

Sen mard, jasur o'g'lonsan,  
Pok maqsading o'ksitma.  
Sen o'zbeksan, polvonsan,  
O'zligingni unutma.

## YAXSHILIK

Yomonga keng dunyo tor,  
Undan doim qilgin or,  
Yaxshi xislat bo'lsin yor,  
Yaxshilar yonida bo'l.

Yaxshilik bu – go'zallik,  
Yaxshilik bu – ahillik,  
Yaxshilarni asraylik,  
Yaxshilar yonida bo'l.

Hayoting go'zal bo'lar,  
Doim omading kular,  
Dilingga mehr to'lar,  
Yaxshilar yonida bo'l.

Do'stlar, qo'l berib qo'lga,  
Chiqaylik yaxshi yo'lga.  
Qaraylik o'ngga, so'lga,  
Yaxshilar yonida yo'l!

## CHEKISH – BEGONA ODAT

Biz – o‘zbekning farzandi,  
Bizdan yiroqdir illat.  
Bizda ko‘p orzu, maqsad,  
Chekish – begona odat.

Ulg‘ayib, shu Vatanda  
Yuksak ishlar qilamiz.  
Doim sog‘lom hayotni  
Eng yaqin do‘st bilamiz.

Biz – istiqlol farzandi,  
Kelajakka zo‘r qanot.  
Bizning qalbimizga yot,  
Chekish – begona odat.

Biz – barkamol avlodmiz,  
Jasur, polvon bo‘lamiz.  
Hamisha sog‘lom yashab,  
Ezgu ishlar qilamiz.

## ENG XUNUK ISH

Dunyoda eng yomoni  
O'zganing rizqin yeyish.  
Kechirilmas gunohdir,  
O'g'rilik – eng xunuk ish.

Har kimning o'z rizqi bor,  
O'g'rilik – yomon illat,  
O'g'ri odam boshiga  
Tushadi ko'plab kulfat.

Mehnat qilib, halol ye,  
O'g'rilik qilmagin hech.  
Bu odatga o'rgansang,  
Pushaymoning bo'lar kech.

O'g'rilik nopok ishdir,  
Yegan oshing tatimas.  
Boshingga tushib tashvish,  
Omading sira kulmas.

## UYG'OQ QALB

Bugun buyuk o'tmishni  
Xotirlaymiz, do'stlarim.  
Kimlar bor, kimlar yo'qdir,  
Diydor yarim, tun yarim.

Xotira bor qalb uyg'oq,  
U go'yoki tiriklik.  
Xotirasiz har odam  
O'tmishiga yo'q ko'prik.

Yurt uchun jon berganlarni  
Xotirlaymiz har bir kun.  
Pok ruhiga takbir aytib,  
Qadrlaymiz har bir kun.

## OTASHIN QALB

Erku muhabbat kuyin  
Kuylab o'tdi Muhammad,  
Chin insoniy qissani  
So'ylab o'tdi Muhammad.

Ona-Vatan madhini  
Jo'shib kuyladi shoir,  
Xalqning buyuk dardini  
Qo'shib kuyladi shoir.

Andijonlik mard o'g'lon  
Tengsiz edi, tanti edi.  
Otashin qalb, ustoz shoir  
Chin o'zbek farzandi edi.

Kapalakjon, mehribonim,  
Qizg'aldoqning qo'lidan tut.  
Marhamatga shoshilib uch,  
Muhammadni ziyorat et.

## BOLAJON O'ZBEGIM

Dunyoning shodligi, quvonchi farzand,  
Otalar izdoshi, ishonchi farzand.  
Olamni tutadi uning kulgusi,  
Mehribon onalar dilbandi – farzand.

Ular ko'zimizning oqu qorasi,  
Dillarni yashnatib bolalar kulsin.  
Bu jajji qalblarga kelar havasim,  
Bolajon o'zbekim, bolang ko'p bo'lsin!

Quvnoq kulgusidan olam shodlanar,  
Otalar sevinchi unga bog'lanar.  
Dunyoni to'ldirsin ular kulgusi,  
Mehrning mevasi – aziz bolalar.

## SUV AZIZ, OBIHAYOT

U tiriklik yuragi,  
Hammaga bor keragi,  
Tabiatning tilagi,  
Suv – aziz, obihayot.

Yaratganning in'omi,  
Har tomchisi azizdir.  
U hayotning davomi,  
U bebaho, lazizdir.

Suv bilan tirik hayot,  
Suv bilan go'zal olam.  
U tirik jonga najot,  
Suv borki, yashar odam.

Tog'lardan oqib tushar  
Shaffof, shirin, zilol suv.  
Hayot ramzi, aslida  
Butun baxtu iqbol – suv!

## NON – TANGA DARMON

Dunyoda eng lazzatli,  
Tanga darmon shirmoy non.  
Hammaga u hurmatli,  
Obi non – rohatijon.

Bobolarim e'zozlab,  
Peshonasidan o'pgan,  
Shu nonga yetish uchun  
Mehnat qilgan, ter to'kkan.

Nonning ushog'i ham non,  
Me'daga hech urmaydi.  
Bu aziz ne'matsiz hech  
Bir kunimiz o'tmaydi.

Oftobdayin tandirda  
Yopiladi shirin non.  
U dasturxon to'rida  
Bo'lar hamisha mehmon.

## JONAJON MAKTAB

Jarangla, qo'ng'irog'im,  
Jaranglasin ovozing.  
Xayr, jonajon maktab,  
Unutmaymiz hush sozing.

Ko'zda nam, dilda quvonch,  
Bolalik tez, shoshqaloq.  
Bugun jaranglar, do'stim,  
Bizga so'nggi qo'ng'iroq.

Xayrlashgim yo'q sira,  
Qadrdon maktab bilan.  
Doim quchog'i ochiq  
Mehribon maktab bilan.

Ziyo topdim bag'ringda,  
Yurak to'la maqsadim.  
Katta yo'lga chiqyapman,  
Hush qol endi, maktabim.

## SHUKRONA AYTING

Shu Vatanning borligiga,  
Qalbga Alloh yorligiga,  
Yomonga yo'l torligiga,  
Shukrona ayting, do'stlar.

Osuda tun botishiga,  
Farahbaxsh tong otishiga,  
Dilda mehr yoqishiga,  
Shukrona ayting, do'stlar.

Tanimiz sog'-salomat,  
Yiroq bo'lsin nadomat,  
Qilmang sira xiyonat,  
Shukrona ayting, do'stlar.

Rizqi but, suyaklikka,  
Insonlik – buyuklikka,  
Avvalo tiriklikka  
Shukrona ayting, do'stlar.

# Mundarija

<b>MANGU QO'SHIQ</b> .....	3
ISTIQLOL FARZANDLARI .....	4
BAG'RINGDA OSMONIMIZ .....	5
MANGU QO'SHIQ .....	6
O'ZBEGIM RAMZI .....	7
ONA TILIM .....	8
VATAN O'G'LONLARI .....	9
O'ZBEK AYOLI .....	10
<b>VAQTNI QADRLA</b> .....	11
NURLI MASKANIM .....	12
MEHRIDARYO USTOZLAR .....	13
SALOMLASHISH ODOBI .....	14
VAQTNI QADRLA .....	15
NON AZIZ .....	16
SO'Z QADRI .....	17
YOT G'OYA .....	18
BURCHING OQLA .....	19
OG'U BILAN O'YNASHMA .....	20
INTERNET .....	21
KESMA SOCHINGNI .....	22
TELEFON .....	23
TIL O'RGANU DUNYONI KEZ .....	24
BARKAMOL AVLOD .....	25
ISTIQLOLNING MANGU MAYO'GI .....	26
<b>UYG'OQ QALB</b> .....	27
O'ZLIK .....	28
YAXSHILIK .....	29
CHEKISH – BEGONA ODAT .....	30
ENG XUNUK ISH .....	31
UYG'OQ QALB .....	32
OTASHIN QALB .....	33
BOLAJON O'ZBEGIM .....	34
SUV AZIZ, OBIHAYOT .....	35
NON – TANGA DARMON .....	36
JONAJON MAKTAB .....	37
SHUKRONA AYTING .....	38

Mansur Yunus  
ISTIQLOLNING MANGU MAYOG'I

Muharrirlar: A. Omonov,  
G. Ortiqxo'jayeva  
Texnik muharrir: A. Ahmedov  
Kompyuterda  
sahifalovchi: Sh. Rasulov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi  
«Adolat» nashriyoti. Nashr. lis. AI № 228, 16.11.2012.  
100192, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.  
Telefon: (371) 268-28-41, 268-28-56.  
Faks: (371) 268-28-43, 268-28-57.  
Veb sayt: [www.adolatnashr.uz](http://www.adolatnashr.uz)  
e-mail: [info@adolatnashr.uz](mailto:info@adolatnashr.uz)

Bosishga ruxsat etildi 01.10.2015-y.  
Qog'oz bichimi 84x108<sup>1/32</sup>. «Sylfean» garniturası.  
Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 1,25.  
Nashriyot hisob tabog'i 3,05. Adadi 50 nusxa.  
....-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.

«Print Line Group» XK bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent sh., Chilonzor tumani,  
Bunyodkor shoh ko'chasi, 44-uy.